



The divine power of mothers' prayers

Madina ABDULLAEVA¹

Institute of Uzbek Language

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025
Received in revised form
15 August 2025
Accepted 25 August 2025
Available online
15 September 2025

Keywords:

Abdulla Oripov,
"Hajj Notebook",
mother theme,
divine power,
wisdom of hadith,
religious and moral ideas,
poetry,
spirituality,
mothers' prayers,
philosophical approach.

ABSTRACT

This article analyzes Abdulla Oripov's poems on the theme of motherhood in the "Hajj Daftari" series. The article examines the poet's artistic and philosophical style, his deep attention to the divine power of the mother's prayer, and his religious and moral ideas. By depicting the image of the mother and her prayer, the poet expresses his thoughts on the spiritual and moral rise of man, his striving for perfection. The article analyzes Oripov's style of incorporating the wisdom of the hadith into poetry, as well as his approach to expressing the divine power of the mother's prayer in his poetic works.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss8/S-pp148-156>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Onalar duosining ilohiy kuchi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Abdulla Oripov,
"Hajj daftari",
ona mavzusi,
ilohiy kuch,
hadis hikmatlari,
diniy-axloqiy g'oyalar,
she'riyat,
ma'naviyat,
onalar duosi,
falsafiy yondashuv.

Ushbu maqolada Abdulla Oripovning "Hajj daftari" turkumidagi ona mavzusiga bag'ishlangan she'rlari tahlil qilinadi. Shoirning badiiy va falsafiy uslubi, uning ona duosining ilohiy kuchiga bo'lgan chuqur e'tibori va diniy-axloqiy g'oyalari maqolada ko'rib chiqiladi. Shoir ona timsoli va uning duosini tasvirlash orqali insonning ruhiy va ma'naviy yuksalishi, komillikka intilishi haqida fikr bildiradi. Maqolada Oripovning hadis hikmatlarini she'rga singdirish uslubi, shuningdek, uning she'riy asarlarida ona duosining ilohiy qudratini ifodalashdagi yondashuvi tahlil qilinadi.

¹ PhD student, Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Божественная сила материнских молитв

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Абдулла Орипов,
«Хадж дафтари»,
тема матери,
божественная сила,
мудрость хадисов,
религиозно-нравственные
идеи,
поэзия,
духовность,
материнские молитвы,
философский подход.

В статье анализируются стихотворения Абдуллы Орипова на тему материнства из цикла «Хадж дафтари». В статье исследуется художественно-философский стиль поэта, его глубокое внимание к божественной силе материнской молитвы, а также его религиозно-нравственные воззрения. Изображая образ матери и её молитвы, поэт выражает свои размышления о духовно-нравственном возвышении человека, его стремлении к совершенству. В статье анализируется манера Орипова воплощать мудрость хадисов в поэзии, а также его подход к воплощению божественной силы материнской молитвы в своих поэтических произведениях.

KIRISH

Ona – bu har bir insonning hayotida beqiyos o‘ringa ega bo‘lgan, ularning eng muqaddas va aziz mavjudotidir. Uning mehr-shafqati, sabri va duolari inson ruhiyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotida ona mavzusi qadimdan alohida ahamiyat kasb etgan bo‘lib, ayniqsa, bu soha katta shoirlar, jumladan, Abdulla Oripov ijodida o‘zining ulkan falsafiy, diniy va badiiy yuksakligi bilan ajralib turadi.

Abdulla Oripovning she’riyatida **ona** timsoli doimo muhim o‘rin tutgan va u o‘zining she’riy asarlarida ona duosining ilohiy kuchini ifodalashda alohida mahorat ko‘rsatgan. Shoirning **“Haj daftari”** turkumidagi ona mavzusiga bag‘ishlangan she’rlari, ayniqsa, **hadis hikmatlarini** chuqur badiiy tasvirlar orqali yoritgan holda, ona duosining ruhiy va ma’naviy qudratini ochib beradi. U o‘zining she’riy mahoratini va diniy-axloqiy g‘oyalarini garmonik tarzda uyg‘unlashtirib, bu mavzuni **hayotning eng yuksak haqiqatlarini** ifodalash vositasi sifatida ishlatgan.

Ushbu maqolada Oripovning ona mavzusidagi ijodi, ayniqsa, uning **ona duosining ilohiy kuchi** haqidagi tushunchalari tahlil qilinadi va shoirning badiiy uslubidagi **falsafiy yondashuv** yoritiladi. Shoirning **hadis mazmuniga asoslangan she’rlari**, ularning insoniyat va jamiyat uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi ham ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Abdulla Oripovning ijodi, ayniqsa, ona mavzusiga bag‘ishlangan she’rlari diniy va axloqiy g‘oyalarni badiiy tarzda ifodalashda yuqori mahorat ko‘rsatadi. Uning asarlaridagi ona timsoli, uning mehribonligi va duosining ilohiy kuchi ko‘plab adabiyotlarda yoritilgan. Oripovning she’rlari aynan hadislarni, islomiy qadriyatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularning badiiy va ma’naviy mazmunini chuqur anglashga yordam beradi.

Abdulla Oripovning “Haj daftari” turkumidagi she’rlari ona duosining ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi. Shoir bu mavzuni she’rlarida keng tarzda yoritib, ona haqidagi diniy va axloqiy g‘oyalarni chuqur badiiy ifoda etadi. “Ona” nomli she’rida, masalan, hadis mazmunidagi ona duosining kuchini tasvirlab, uning hayotdagi o‘rni va insonlar uchun ahamiyatini ta’kidlaydi. Shoirning poetik uslubi bu mavzuni yanada kuchaytiradi, u hadislarni va diniy an’analarni she’riy ifoda orqali yangi badiiy shaklga keltiradi.

Oripovning ona haqidagi she'rlari, shuningdek, uning ilohiy kuch va ma'naviyat haqidagi fikrlarini aks ettiradi. Diniy-axloqiy adabiyotlarning ta'siri juda katta, chunki Oripovning she'rlari ko'plab islomiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Ona haqidagi diniy hadislarini she'riy shaklda ifodalash orqali, u nafaqat ona timsolining ahamiyatini, balki uning duosining ilohiy qudratini ham tasvirlaydi. Bu uslub, shuningdek, shoirning diniy va ma'naviy g'oyalarini adabiy yo'lda taqdim etishdagi yuksak mahoratini namoyon etadi.

Oripovning ijodi, shuningdek, boshqa adabiyotlardan ham ilhomlangan. O'zbek klassik adabiyotining buyuk vakillari, xususan, Navoiy va Xorazmiy kabi shoirlar, ona haqidagi asarlari bilan Oripovning ijodiga ta'sir qilgan. Ularning ona haqidagi fikrlarini Oripov yangi, zamonaviy sharoitda o'ziga xos she'riy shaklda ifodalaydi. Shu bilan birga, Oripovning she'rlari Muhammad Yusuf va Erkin Vohidov kabi zamonaviy adiblarning ona haqidagi tasvirlari bilan ham bog'lanadi, ularning ona duosining ilohiy kuchi haqida bildirilgan fikrlarini zamonaviy she'riyatga yangi talqinlar bilan olib kiradi.

Adabiyotshunoslar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar Oripovning ona haqidagi she'rlari va uning ma'naviy-axloqiy g'oyalari ustida chuqur tahlil o'tkazilgan. Ushbu ilmiy ishlar shoirning diniy-axloqiy yondashuvini va badiiy uslubini anglashga yordam beradi. Shoirning ijodiga oid ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va tahliliy ishlar Oripovning ona mavzusidagi she'rlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Ma'naviyat, diniy qadriyatlar, va ona duosining ilohiy kuchi kabi masalalar shoirning asarlarida o'z aksini topgan va ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Adabiyotlar tahlili Oripovning ona haqidagi g'oyalarini to'liq tushunishga yordam beradi. Shoirning ijodi, uning ona duosining ilohiy kuchi haqidagi falsafasini, diniy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalashdagi uslubini to'liq anglash imkonini yaratadi.

NATIJALAR

Abdulla Oripovning ona duosining ilohiy kuchi haqida yozgan she'rlari o'zida chuqur diniy-axloqiy g'oyalarni, ma'naviy fazilatlarini va inson ruhiyatining yuksalishini aks ettiradi. Shoir o'zining badiiy uslubi, poetik mahorati orqali ona timsolining ahamiyatini, uning duosining ilohiy kuchini keng qamrovli tarzda tasvirlaydi. Oripovning she'rlari o'ziga xos tarzda hadis va islomiy qadriyatlarni badiiy shaklda ifodalagan holda, o'quvchiga ona haqidagi chuqur tafakkur va ruhiy anglashni taqdim etadi.

Shoirning "Haj daftari" turkumidagi ona haqidagi she'rlari, ayniqsa, ona duosining ilohiy kuchini aks ettirishda o'ziga xos yondashuvni ko'rsatadi. Oripov ona duosining ijobiy va yuksak ma'naviy kuchini, uning inson hayotidagi o'rni va ta'sirini muhim masala sifatida ko'rib, uni diniy hadislar asosida she'riy shaklda tasvirlaydi. She'rlar orqali shoir ona mehrini va uning duosining insoniyat uchun naqadar muqaddasligini va qadrli ekanligini o'quvchiga yetkazadi.

Adabiyotlar tahlili, shuningdek, Oripovning ijodida ona haqidagi diniy-axloqiy g'oyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan ilohiy kuch va ma'naviyatni tushunishga yordam beradi. Shoir o'z asarlarida qadriyatlar, ona duosi va uning hayotdagi kuchini yangi badiiy shakllarda ifodalash orqali onaga bo'lgan hurmatni va uning haqiqiy ma'nosini yuksaltiradi. Uning she'rlari, shuningdek, islom dinining axloqiy va ma'naviy ta'limotlarini, ona haqidagi hadislarini estetik tarzda, she'riy va badiiy shaklda ifodalashga muvaffaq bo'lgan.

Natijada, Abdulla Oripovning ona duosining ilohiy kuchi haqidagi she'rlari, adabiyotdagi diniy va axloqiy g'oyalarni badiiy shaklda yuksak darajada ifodalashning yuksak namunasidir. Shoirning ona haqidagi fikrlari zamonaviy adabiyotda o'ziga xos, muhim o'rin tutadi va har bir o'quvchiga ona mehrining va duosining ilohiy kuchini chuqur anglashga imkon yaratadi.

MUHOKAMA

Abdulla Oripov – o'zbek millatining donishmand shoiri. Nodir she'riy iqtidor va yuksak falsafiy ruhiyat tasvirlari Abdulla Oripov dahosini boshqalardan ajratib turuvchi noyob jihatlardan biridir. Ijodkor she'rlarini bezab turgan badiiyat aynan hayot qozonida qaynab chiqqan bo'lib, ko'ngil xazinasida qayta ishlangani bilan diqqatini tortadi. Shoir boshqalar anglamagan haqiqat asrorini, boshqa birovlar tushunmagan sirlarning ranglarini, o'zgalar ko'rmagan ranglar jilosini ta'sirli, obrazli so'z vositasida anglatadi, tushuntiradi, ko'rsatadi. Zero, bunday she'riy so'zni yurakdan yurakka ko'chishi, olam va odamni chuqur anglashga yordam berishi tabiiydir. Abdulla Oripov o'z she'rlarida hamisha dunyo holidan, inson tabiatidan so'z ochadi [5:4]. Shoir ijodida yetakchi hisoblangan ona mavzusidagi she'rlar ham xuddi shu ruhiyati, badiiyati bilan diqqatga sazovordir. Xususan, shoirning "Haj daftari" turkumidagi onalarga bag'ishlagan she'rlari o'ziga xos hikmat bilan yo'g'rilgan. Istiqlof sharofati tufayli diniy – axloqiy g'oyalar adabiyotimizda chuqur ildiz otib borayotir. Ma'naviy sarchashmalarimiz – Ollohning kitobi muqaddas Qur'oni Karimga, Muhammad Mustafo s. a. v. sunnatlari – muborak Hadislarga murojaat etish alohida tamoyilga aylandi. Abdulla Oripovning "Haj daftari" turkumi bunga yorqin misol bo'la oladi. Shoirning hikmatlar bilan oydinlangan she'rlari odamlardagi odamiylik xislat – fazilatlarini kashf etish orqali shaxs va jamiyatni komillikka undashga qaratilgan mohiyati bilan e'tiborli [1:91]. O'zida hadis hikmatini aks ettirgan "Ona" nomli asarda hammaga ma'lum bo'lgan hadis mazmunining she'rga solingan matni dastlabki ikki bandni o'z ichiga oladi. Shoirning poetik mahorati esa so'nggi, uchinchi bandda ortiqcha izohsiz, ortiqcha so'zsiz, aynan hayotning o'zidan misol keltirish orqali ifoda etilgan.

*Kindir savol berdi: – Aytgil Muhammad,
Yolg'iz sen Rasulsan butkul olamga.
Kinga ko'p yaxshilik aylay o'zing ayt,
Ota – onamgami? Yoxud bolamga?*

*Rasul javob qildi: – Tingla birodar,
Gapimni uch bora quloqqa ilgil.
Imkon topa olsang dunyoda agar
Eng avval onangga yaxshilik qilgil*

*Bu hikmat shartlarin o'yladim uzoq,
Rostdan ona erur qiblai olam.
Garchi barchamiz ham padarmiz, biroq
Onadan tug'ilgan payg'ambarlar ham [8:2025].*

Shoirni o'ylantirgan tushuncha onalarga birinchi bo'lib yaxshilik qilish fikri. Ijodkor bu hikmatni sharhlash uchun uzoq o'ylaganini e'tirof etadi va o'quvchiga o'zining mushohadasini badiiy va falsafiy ohang uyg'unligida, ustalik bilan yetkazadi. Hadisning dastlabki ikki bandi dialogik shaklda, rivoyat usulda yoziladi. Bu ikki bandda ijodkor onalik sharafini diniy hukm shaklida anglatadi. Uchinchi bandda shoir hikmatning oddiy inson ahamiyat bermaydigan jihatlari sabab keltiradi va bu sababni badiiy hukm sifatida asoslaydi. Bu badiiy hukm hayotiy asosga ega bo'lib, o'quvchiga aslida tanish

voqelikdan iborat. Har qanday zukko o'quvchi ham mazkur topilma qarshisida, men buni bilardim, men ham o'ylagandim deya olmaydi. She'ning asos g'oyasi va mazmuniy tayanch nuqtasi mana shu.

*Garchi barchamiz ham padarmiz, biroq
Onadan tug'ilgan payg'ambarlar ham [8:2025].*

Badiiy asarning inson hissiga ta'siri masalasi badiiy xulosaga ega bo'lgan hadisning she'riy shakli inson hissiy tafakkuriga yanada yaqin va ta'sirchandir. Insoniyat yaralibdiki, o'y fikrlari, orzu intilishlari, armon va anduhlarini shu bilan birga, jamiyatdagi ijtimoiy, axloqiy – ta'limiy, falsafiy va bosha bir xildagi qarashlarini badiiy adabiyot orqali ifodalab keladi. Bunga sabab, adabiyot bu so'zlar uyg'unligidan tug'ilgan mo'jiza emas, u hayotning o'zi. U odamzodni inson qiladigan, yurakni uyg'otadigan, ongni ravshanlashtiradigan kuchdir. Adabiyot faqat fan emas, u madaniyat, u ong. U inson ongiga oid bo'lgan eng muhtasham, eng ta'sirli yaratiq. Adabiyotning quroli hisoblangan badiiy so'zning kuchi sabab she'rdagi ikki misragina badiiy xulosa diniy hukmdan jozibroq. Arzirli sabablarga, iddaolarga ega bo'lgan bu badiiy hukm ijodkor ongining dono mushohadasi. She'rda inson ruhini etkilovchi, ona obraziga xos ulug'lik sababini ochib beruvchi mantiq chizig'i aslida juda oddiy. Ona. U o'z nomi bilan ona. U farzand vujudini va bu vujudni o'rab turgan ruhni boshqa bir olamlardan bir boshqasiga o'tkazib beruvchi shaxs. Onalik maqomi shuning o'zi bilangina ulug' va to'liq deyish mumkin. U payg'ambarlar onasi bo'lsa-chi? She'rda onaning aynan ana shu jihatlari buyukligining bir sababi deb ko'rsatilmoqda. Payg'ambar xabar beruvchi Xudoning xohish – irodasini bandalariga yetkazuvchi ilohiy vakil [7:2025]. Shoir shu ilohiy maqom va iqtidor berilgan zotlarni ham onalar dunyoga keltirganiga urg'u beradi.

Abdulla Oripovning "Haj daftari" turkumiga kiruvchi yana bir she'ri "Onajon" deb nomlandi. She'r shoirning Haj ziyoratida kuzatgan hayotiy voqelikdan tug'ilgan oniy kayfiyat lahzalarini aks ettiradi. Abdulla Oripov kichik bir hayotiy detaldan, olis o'tmish xotiralaridan falsafiy mazmun kasb etuvchi badiiy umumlashmalar chiqaradi. Shoir poetik obrazlarining o'ziga xosligi – bu hayotiy konkretlikka egaligidadir. Poetik obrazlar aniq hayotiy holat, dalil va detallardan vujudga keladi. Shoir turmushdagi oddiy – odatiy voqeani, hol – holatni, manzara kechinmani el qatori kuzatar ekan, nogahon ilhomi ulardan hech kutilmagan, o'zgalar hech ta'kidlamagan hikmat topadi [5:6].

*Ka'ba qopqasida turgan ey posbon,
Avval onalarning ochgin yo'llarin.
Onalar poyiga tiz cho'k o'shal on,
Tavof qil, ko'zga surt, o'pgin qo'llarin*

*Hojar onamizning nidosi sabab
Ka'bada ko'z ochgan obi zamzam ham.
Bir umr talpinmish onaga qarab,
Ne – ne payg'ambarlar, ko'zlarida nam [8:2025].*

Hojar ona – mana u ko'zlar o'ngida tog'-u toshlar orasida, qo'llari ko'kda, och go'dagining hayoti uchun nido qilmoqda, demasa-da shoir, onaning nidosi sabab obi zam-zam bulog'i ko'z ochgani, onaning mehr shafqatli qo'llariga hatto payg'ambarlar ham

muhtoj bo'lgani haqidagi badiiy haqiqatlari inson qalbini junbishga keltiradi. Hojar va uning o'g'li haqidagi Allohdan kelgan hukm bois Hojar ona kimsasiz suvsiz, tog' – u toshlardan iborat Makkaga o'g'li Ismoil bilan birga Ibrohim payg'ambar tomonidan tashlab ketiladi. Hojar onaning farzandi uchun omonlik tilab qilgan sa'yi, ya'ni Safo va Marva tog'lari orasida yugurishi, Allohga tavakkal qilishi haj va umraning ajralmas qismi sifatida abadiylashtirilgan. Baytdagi Hojar onaning duosi, onalar duosi bilan bog'liqlik kasb etib, butun dunyo onalarining duolarida ilohiy kuch, qudrat borligiga ishora qiladi. Demak asos g'oya, onalarning azizligi bilan birga ularning duolaridagi ilohiy kuch, sevgi qudratining tajalli etishi hamdir. Aslida islom ta'limotida ona katta mavqega ega bo'lib, Qur'oni Karimda va payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamning hadislarida bu mavzu keng yoritilgan. Ona maqomi Qur'oni Karimning "Baqara" surasi 215-oyat, "Ahkof" surasi 15-oyat, "Isro" surasi 22–23-oyatlar "Luqmon" surasi 14-oyatlarda Alloh insoniyatga onaning haqlari va maqomidan baxs etadi. Shoir onalar duosi ijobati haqida fikr bildirar ekan, Hojar ona duosini misol keltirish orqali fikrning tarixiy asoslariga badiiylilik libosini kiydiradi. Allohning elchilari hisoblangan payg'ambarlarning onaning shafqati va marhamatiga muhtoj bo'lishganini ta'kidlaydi.

*Qavmimni ranjitib qo'ymayin, ammo
Tobut yasab kelgan er zoti doim.
Onalar bag'riga faqat beshik jo,
Hayotbaxsh allalar aytgan, muloyim [2:108].*

Uchinchi bandda shoir bir ishtiboh bilan so'z boshlaydi. "Qavmimni ranjitib qo'ymayin, ammo". Bu o'rinda shoir keyingi badiiy fikrni o'quvchiga bor ijtimoiy muammolari bilan, birgina satrga joylab aytishga chog'lanmoqda. Kontrastlilik orqali butun bandning mazmun mohiyati yuzaga chiqadi. Ya'ni onalar Yer yuzida hayot yaratuvchilardir. Otalarning tobut yasashi haqidagi fikr onalarning yaratuvchilik xarakteriga urg'u berishga xizmat qiladi. Ko'rinib turibdiki, ayol va erkak o'rtasidagi farq erkaklarning jamiyat qurishdagi kurashlari "tobut yasash" voqeligi orqali badiiy ifodalanadi. Onalarning bag'riga jo bo'lgan beshik esa, ularning jamiyat yaratuvchi kuchiga ishora qiladi.

Beshik, alla, tobut detallari asarning mazmun mohiyatini, qahramonning insoniyat rivoji uchun bajargan vazifalarini ta'kidlash orqali ochib bergan. Baytga oddiy informatsiya shaklida baytga murojaat qilsak, undagi ta'sir kuchi mutlaqo yo'qolib, oddiy axborot matniga aylanib qoladi. Erkaklar xafa bo'lib qolmasin, lekin, haqiqat shuki, erkak qavmi har doim tobut yasaydi. Onalar bag'rida esa har doim beshik. Ular har doim hayotbaxsh allalar aytishadi. Bu matnda badiiy matn anglatgan yuksak tushunchalar ifodasi ko'rinmaydi. Badiiy matnni o'qigan o'quvchi o'zga bir olamga, til unsurlari vositasida paydo bo'lgan badiiy reallikka tushib qoladi. Badiiy reallik esa, bu bandda Abdulla Oripov badiiy tafakkuri natijasida hayotiy xulosalarga qayta jon kiritilgan, badiiy obraz tashigan falsafiy teran tushunchalardir. Baytning asos g'oyasini ochib bergan alla so'ziga to'xtalsak. Alla – bolani ovutish va uxlatish uchun aytiladigan qo'shiq. Alla inson hayotidagi eng muhim palla, inson sifatida o'zini tanish, olam bilan muloqot tili, aslida. Dadil aytish mumkinki, she'rdagi baytda ham allaning hayot qo'shig'i ekanligiga ta'kid bo'rtib turadi. Unda onaning farzandi uchun tilagan umr, rizq, baxt – saodat kabi ezgu istaklari ham she'rdagi onalar duogo'yiligi masalasini yanada to'ldiradi. Alla har doim ham onalar tilida hayot davomiyligining madhiyasidek yangrarkan yer yuzida hayot davomiyligiga ham ishora qiladi.

*Shoʻrlik odamzodning toleyi uchun
Eng avval onalar qilsin ibodat.
Zora gunohlardan pok boʻlgay ochun,
Onalar oʻtinchi topib ijobat.*

*Kaʻba qopqasida turgan, ey posbon,
Avval onalarning ochgin yoʻllarin.
Onalar poyiga tiz choʻk oʻshal on,
Tavof qil, koʻzga surt, oʻpgin qoʻl [2:115].*

Islomiy aqidalarga koʻra Onaning roziligi Allohning roziligi, unga xizmat qilish esa, oliy burch hisoblanadi. Uning haqqini ado qilish masalasi esa, oxiri yoʻq tushuncha. Uning haqqini hech narsa bilan oʻtab boʻlmaydi. Bu fikrni Qurʼon oyatlari va hadislar bilan chuqur maʼnoda sharhlash mumkin. Badiiy matndagi tavof qilish tushunchasi ham onaning ezoterik maqomlariga ishora qiladi. Tavof qilish soʻzining asl maʼnosini quyidagicha izohlash mumkin.

1. Allohga yaqinlik va ibodat.
2. Paygʻambarlar sunnati.
3. Ruhiy poklanish va duo qilish.
4. Butun ummatning birlik timsoli.
5. Hayot va koinot ramzi.

Tavof qilmoqning baytda ramziy maʼno kasb etadi yaʼni, onaning roziligini olmoq uchun farzandning saʼy – harakatlariga ishora qiladi. Hoki poyiga yiqilib koʻzga surtish holati esa odatda muqaddas joylarga, ustoz yoki pirga, onaga nisbatan ishlatiladi. Hayotni bilishimizga, maʼnan rivojlanishimizga xizmat qilgan ona avvalambor insonning, sheʼrdagi gʻoyalarga koʻra butun insoniyatning maʼnaviy rahbari va ustози. Shu sabab, Kaʼbani tavof qilishga eng avval unga yoʻl boʻshatish kerak, unga avval taʼzim qilish, qoʻllarini oʻpish kerak degan badiiy xulosa yuzaga chiqadi.

Toʻrtinchi band birinchi bandning mantiqiy yechimi boʻlib, butun insoniyatning ruhiy poklanishi onalarning ilk bor Kaʼbani ziyorat qilib bilan bogʻlanadi. Adabiyotshunos Qozoqboy Yoʻldoshev qadriyat va ruhiy kechinmalarning baytma – bayt rivoji va kuchayib boruvchi chuqur falsafiy fikrlar oqimini, yangi falsafiy fikrlar va chuqur hikmat ifodalanishini oʻzbek adabiyotida faqat Abdulla Oripovgagina xos – deb taʼriflaydi. Shoir birinchi misrada odamzodga nisbatan shoʻrlik soʻzini qoʻllaydi. Bu soʻz insoniyatning yer yuzidagi hayoti davomida hal qilolmagan juda katta ijtimoiy muammolariga urgʻu beradi. Shoir bir millat darajasidagi muammolarni emas, umumbashariy muammolarni nazarda tutadi. Ijodkor butun insoniyatni baxtsiz qilayotgan bu tugunni izohlab bermaydi, lekin hushyor oʻquvchi, bir onda, ongida insoniyatning taqdiriga taʼsir qilayotgan voqeliklarni jonlantira oladi [6:2025]. Baytda tole va shoʻr soʻzlari kontrastlilik hosil qilgan. Bu soʻzlar tugun vazifasini ham bajaradi. Ikkinchi misradagi ibodat, yaʼni onalarning birinchi boʻlib ibodat qilishi masalasi butun insoniyatga yordamga kelayotgan baxtning, tolening darakchisi va sababidir. Onalarning Kaʼbani birinchi boʻlib ziyorat qilishi va farzandi haqqiga qiladigan duolari har safargi duolaridan-da kuchliroq, taʼsirliroq boʻlardir. Chunki muqaddas makon tushunchasi bor bu yerda. Makon muqaddas. Muqaddas makon va aziz ona tushunchalari parallel qoʻyilgan. Ularni bir orada tasvirlash orqali muallif ilohiy lahzalarni, ona duosiga ochilgan koʻk eshiklarini, maʼno olamiga ochilgan bir yoʻlni ham

tasvirlab beradi. Muqaddas makonda aziz onaning qilgan duolari sharafiga butun insoniyat ruhan poklanishiga ishonadi va o'quvchini ham bunga, yuqorida keltirilgan tarixiy dalillar orqali ishonтира oladi. Bandlar mantiqan bir birini to'ldirgan fikrlar zanjiri orqali mustahkam bog'langan.

So'ngi bayt takror hisoblanib, o'z zimmasiga ta'kid yukini oladi. bayt faqat mantiqiy jihatdan takrordan tashqari, boshqa poetik maqsadlarga ham xizmat qiladi. Masalan hayot davom etar, yer yuzida muqaddas makonlar mavjud bo'lar ekan, albatta u yerni ziyorat qiluvchi aziz onalarga posbon har safarda hurmat ko'rsatishi, birinchi bo'lib ibodat qilishlari uchun yo'l ochishi, ularga ta'zim qilishi kerak. Nega, chunki butun insoniyatning ruhiy poklanishiga sabab bo'luvchi duolarning bardavomligi yer yuzida baxtning bardavomligidir, degan ma'nodagi g'oyaga xizmat qiladi. Uni ta'kidlaydi, unga urg'u beradi. Bayt shunchaki takrorga o'xshab ketsa-da, ko'rib turganimizdek, aslida mustaqil fikr, va g'oya tashiydi.

XULOSA

Abdulla Oripovning ona duosining ilohiy kuchi haqidagi she'rlari adabiyotimizda o'ziga xos va yuksak badiiy yondashuvni taqdim etadi. Shoir ona timsolining muqaddasligini, uning mehr-shafqatini va duosining ilohiy kuchini she'riy uslubda yanada chuqurlashtiradi. Oripov o'z asarlarida diniy va ma'naviy g'oyalarni to'liq ifodalash orqali, ona duosining hayotimizdagi ahamiyatini va uning ruhiy ta'sirini keng qamrovli tarzda aks ettiradi.

Shoirning "Haj daftari" turkumidagi she'rlari ayniqsa ona haqidagi hadislarni badiiy shaklda ifodalash bilan e'tiborga molikdir. Bu she'rlar orqali, ona duosining kuchi, uning insoniyat uchun qadrini va ahamiyatini yuksaltirgan holda, she'riyatda chuqur ma'naviy va axloqiy g'oyalar ifodalanadi. Abdulla Oripov ona mavzusini nafaqat ma'naviyat, balki inson ruhiyatini anglash va uning o'ziga xos yuksakligini ta'kidlash vositasi sifatida ishlatgan.

Adabiyotshunoslar tomonidan olib borilgan tahlillar, Oripovning she'rlari orqali ona haqidagi diniy-axloqiy g'oyalar va ma'naviyatni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Shoir o'z asarlarida ona duosining ilohiy kuchini tasvirlayotganida, uning badiiy va diniy uslubi o'quvchiga yuqori ma'naviy g'oyalarni etkazish imkonini yaratadi.

Abdulla Oripovning ona haqidagi she'rlari adabiyotimizda o'zining yuksak badiiy va diniy ahamiyatiga ega. Bu asarlar nafaqat o'zbek she'riyatining rivojiga, balki insoniy qadriyatlarni anglashda ham katta rol o'ynaydi. Shoir ona duosining ilohiy kuchini chuqur tasvirlab, o'quvchini hayotning eng muhim qadriyatlarini anglashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rasulova, D. O'zbek ayol shoiralari ijodida onalik timsoli. Filologiya masalalari, Toshkent, 2020, №1, 88–94.
2. Oripov, A. Haj daftari. Toshkent, 2005, O'zbek Milliy Ensiklopediyasi Nashriyoti, 100–150-betlar.
3. Qodirov, X. Ona va uning roli: Adabiyotda va hayotda. Toshkent, 2011, Yoshlar nashriyoti, 20–120-betlar.
4. Shodmonov, B. She'riyat va ma'naviyat: Adabiyotshunoslik tahlillari. Toshkent, 2014, O'zbekiston nashriyoti, 10–180-betlar.
5. Karimov B., Abdulla Oripov she'rlari to'g'risida ayrim mulohazalar//ABDULLA ORIPOV IJODINING ILMIY-MA'RIFIY AHAMIYATI" mavzusidagi respublik ilmiy-nazariy konfirensiya materiallari yo'plami, 2020 yil, noyabr, 4- bet

6. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=2282639136569335195&btnI=1&hl=ru>
7. <https://econfseries.com/index.php/5/article/view/2207>
8. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/abdulla-oripov-1941>